
So’ngak mozor-qo’rg’oni haqida eshitganmisiz?

So’ngак mozor-qo’rg’oni Toshkent shahridan 100 km shimoli-sharqda, Chotqol tog’ tizmasining dengiz sathidan 850 metr balandlikda, Chorvoq suv omborining janubi-sharqiy sohilida joylashgan. Suv ombor qurilgunga qadar ushbu yodgorlik Chotqol daryosining chap sohilida bo’lgan. U ishga tushirilgandan so’ng boshqa ko’plab yodgorliklar qatori suv ostida qolib ketgan. Kuz faslining ikkinchi yarmida suv sathi pasaygani sari mozor-qo’rg’on hududi ko’rina boshlaydi.



Toshkent viloyati xaritasi

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi xodimlari F.Maqsudov boshchiligida 2019-yilning noyabr oyida bu yerga bir kunlik tezkor dala izlanishi safari uyushtirib, qabristonning geografik o’rni, umumiy maydoni,

qabrlarning shakli o’rganildi. Ayrim yuzaga chiqib qolgan topilmalarni, shu jumladan, sopol idishlar, temirdan yasalgan xanjar, pichoq, uzangi, so’liq, bir nechta to’qa, yorg’uchoq toshi, temir eritilgan o’choqning devor parchasi va bir necha bosh chanoqlar qo’lga kiritildi.



Sopol idishlar, temir buyumlar, yorg’uchoq toshi va o’choq devori

Dekabr oyida esa yana bir kunlik dala tadqiqoti tashkillanib, ikkita qabr ochib o’rganildi. Birinchi qabr mozor-qo’rg’onning janubiy qismida joylashgan. Qabr qo’rg’oni to’liq buzilib ketgan. Shu sababli uning qanday shaklda bo’lganligi noma’lum. Qabr oval shaklida bo’lib, tuproq bilan to’ldirilgan. Uning ichki tomonini o’lchami 180x100 bo’lib, yodgorlikka jiddiy shikast yetganligi sababli chuqurligini aniqlashni imkoni bo’lmadi. Mayit cho’zilgan holatda, bosh tomoni janub-janubi-sharq tomonga qaratib ko’milgan. Uning chap yelkasi tomondan qo’lda yasalgan bir dastali ko’za, uning yuqorirog’ida, boshining chap yonidan esa bir dastali yog’loqi topildi (3-rasm).




Мозор-қўрғон ҳудудидан топилган темир буюмлар





Qabr va topilmalari

Ikkinchi qabr birinchi qabrdan shimolroqda bo’lib, uning ham qo’rg’oni to’liq buzilib ketgan. Suv bosishi natijasida qabrning bir qismi ochilib qolgan. Olib borilgan qazishma natijasida qabrning taxminiy o’lchamlarini olishga muvaffaq bo’lingan. U 190x90 sm bo’lib, oval shaklida bo’lgan. Orientatsiyasi esa shimol-shimoli-g’arbdan janub-janubi-sharqqa qaratilgan. Qabr markazida mayitning nisbatan sochilgan qovurg’a, qo’l va oyoq suyaklari aniqlandi. Kalla suyagi esa topilmadi. Mayitning oyoqlari janub-janubi-sharqqa qaratilganini hisobga olib aytganda, bosh qismi unga qarama-qarshi tomonda bo’lgan deyish mumkin. Qabrdan hech qanday buyum topilmadi.



2-qabr

Yangi mavsumda yodgorlik va uning atroflarida keng ko’lamli arxeologik nazorat izlanishlari hamda qazishmalar olib borish rejalashtirilmoqda. Chunki yildan yilga yemirilib borayotgan bu qabristondagi ochilib qolgan qabrlar tezlik bilan qazib o’rganilishi kerak. Toshkent viloyati hududida bunday topilmalarning oz uchrashi esa ushbu arxeologik yodgorlikning ahamiyatini yanada orttiradi.